



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA
AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70540202 – Matematik injiniring
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

70540202 – Matematik injiniring

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: AXMEDOV AKROM BURXANOVICH

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: SABUROV MANSUR

Gulf University for Science and Technology

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260061
Xulosa raqami	1080
Xulosa sanasi	01.07.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy. Guvohnoma: MAS № 0000311, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Matematik injiniring
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70540202
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000311, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70540202 – Matematik injiniring
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70540202 – Mathematical Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70540202 – Математический инжиниринг
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis matematik, pedagog-tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	16 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Guliston mahallasi, Islom Karimov ko'chasi, 288-A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida "Aniq va tabiiy fanlar" kafedrasining 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim yo'nalishi bo'yicha istiqbolli rivojlantirish rejasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha mo'ljallangan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi asosida shakllantirilgani aniqlandi. Mazkur hujjatlarda ta'lim dasturini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, maqsadli ko'rsatkichlar, amalga oshirish muddatlari hamda kutilayotgan natijalar belgilangan. Istiqbolli rejaning davlat darajasidagi strategik konsepsiya bilan bevosita uyg'unlashtirilgani ta'lim dasturini milliy ustuvor yo'nalishlar asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholandi. Shuningdek, ta'lim dasturi bo'yicha ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan hamda mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolat va funksiyalari aniq belgilangan. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida Universitet rektorining 2026-yil 18-apreldagi 116-U-son buyrug'i bilan akkreditatsiyadan o'tkaziladigan ta'lim dasturlari ro'yxati tasdiqlangani hamda ularga mas'ul shaxslar birlashtirilgani aniqlandi. Jumladan, 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv-uslubiy ishlarni tashkil etish va samarali amalga oshirish uchun

mas'ul tarkib va ijrochilar belgilangan. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kasbiy kompetensiyalari Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasining 7-darajasi talablariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, ularning mazmuni magistratura darajasidagi tayyorgarlik talablarini to'liq qamrab oladi. Matematik injiniring magistratura ta'lim yo'nalishida nazariy matematik tayyorgarlikni muhandislik masalalarini modellash, tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqish kompetensiyalari bilan uyg'unlashtirish ta'lim dasturining muhim ustunliklaridan biri sifatida baholandi. Umuman olganda, ta'lim dasturi mazmuni ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejalari, fan (modul) dasturlari va sillabuslar ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislarini keng jalb etgan holda ishlab chiqilgani aniqlandi. Ularni shakllantirish va takomillashtirish jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va tavsiyalari inobatga olingan bo'lib, bu ta'lim dasturi mazmunining mehnat bozori ehtiyojlari va zamonaviy kasbiy talablar bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Manfaatdor tomonlarning keng ishtiroki ta'lim dasturini real ehtiyojlarga yo'naltirish hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgan bo'lib, talabalar bilimini baholashning shaffofligi, xolisligi va akademik halollik tamoyillariga rioya etishni ta'minlovchi tashkiliy mexanizmlar joriy etilgan. Umuman olganda, o'quv jarayoni va baholash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida magistratura ta'lim dasturi bo'yicha qabul jarayonlari Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori bilan tasdiqlangan amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Qabul mezonlari, tanlov tartibi, baholash va natijalarni

e'lon qilish jarayonlari belgilangan talablarga muvofiq yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning shaffofligi va ochiqqligi ta'minlangan. Qabul parametrlari universitetning mavjud kadrlar salohiyati, moddiy-texnik bazasi hamda ta'lim resurslari imkoniyatlari bilan o'zaro muvofiqlashtirilgan. Magistratura darajasida magistrantlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish, akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi tashkiliy mexanizmlarning mavjudligi ta'lim dasturining muhim ijobiy jihatlaridan biri sifatida baholandi. Shuningdek, talabalarning akademik harakatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlar va nizomlar amalda qo'llanilayotgani aniqlandi. Umuman olganda, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega professor-o'qituvchilar salohiyati inobatga olingan holda kadrlar tarkibi shakllantirilgani aniqlandi. Kadrlar siyosati doirasida shtat birliklarini to'liq komplektatsiya qilish, barcha o'quv fanlarini asosiy shtatdagi malakali mutaxassislar bilan ta'minlash hamda kafedradagi PhD va DSc ilmiy darajasiga ega professor-o'qituvchilar ulushini 2026-yildagi 20 foizdan 2030-yilga qadar 70 foizga yetkazish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar va amalga oshirish muddatlari belgilangan. Ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ulushini oshirishga qaratilgan strategik yondashuv ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyati sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholandi. Shu bilan birga, mazkur rejani belgilangan muddatlarda izchil amalga oshirish va uning ijrosini muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiq deb topildi. Umuman olganda, inson resurslarini boshqarish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalari hamda taqdim etilgan hujjatlar va ekspertiza jarayonida o'rganilgan dalillar tahlili asosida mazkur bobdagi barcha indikatorlar muvofiq deb topildi. Tahlillar natijasida 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik

baza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari hamda axborot-resurs ta'minoti shakllantirilgani aniqlandi. Universitet auditoriyalari zamonaviy o'quv texnikalari, jumladan interaktiv panellar, mini-kompyuterlar va boshqa axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangan bo'lib, ular ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Matematik injiniring magistratura ta'lim yo'nalishida yuqori unumdor hisoblash texnikasi, matematik modellash va muhandislik hisob-kitoblarini amalga oshirishga mo'ljallangan ixtisoslashgan dasturiy ta'minotning mavjudligi magistrantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholandi. Shuningdek, axborot-resurs markazi fondi, elektron kutubxona va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari ta'lim dasturi talablariga muvofiq ekani tasdiqlandi. Umuman olganda, moddiy-texnik ta'minot tizimi ta'lim dasturining maqsadlari hamda amaldagi normativ talablarga muvofiq tashkil etilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Kafedradagi PhD va DSc darajali professor-o'qituvchilar ulushini 2026-yildagi 20 % dan 2030-yilga borib 70 % ga oshirish rejasini izchil amalga oshirish talab etiladi.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Hisoblash texnikasi va ixtisoslashgan dasturiy ta'minot bazasini mustahkamlash tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish rejasini izchil amalga oshirish (2026-yil 20 % → 2030-yil 70 %).
- ✓ Shtat birliklarini to'liq komplektatsiya qilish va barcha fanlar bo'yicha asosiy shtat mutaxassislar bilan ta'minlash.
- ✓ Hisoblash resurslari va modellash dasturiy ta'minotini rivojlantirish.
- ✓ Magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti" davlat muassasasida 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy-boshqaruv tizimi, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyatini tashkil etish, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi, mas'ul tarkibiy tuzilma, istiqbolli rivojlantirish rejasi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasining 7-darajasi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uning maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kasbiy kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgan, o'quv rejalari va fan dasturlari ish beruvchilar, talabalar hamda soha mutaxassislari ishtirokida shakllantirilgan, baholashning shaffofligi va akademik halollik tamoyillari ta'minlangan. Magistrantlarni qabul qilish, ularning akademik harakatini tashkil etish hamda ilmiy va akademik faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amaldagi normativ talablarga muvofiq yo'lga qo'yilgan. Ta'lim dasturi malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlangan bo'lib, ilmiy darajali kadrlar ulushini 2026-yildagi 20 foizdan 2030-yilga qadar 70 foizga oshirish bo'yicha aniq strategik maqsadlar belgilangan. Universitetda zamonaviy o'quv auditoriyalari, interaktiv panellar, mini-kompyuterlar, axborot-resurs markazi, elektron kutubxona hamda matematik modellashtirish va muhandislik hisob-kitoblarini amalga oshirish uchun zarur hisoblash texnikasi va ixtisoslashgan dasturiy ta'minot mavjud. Baholash yakunlariga ko'ra, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari (boblari) va barcha indikatorlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi hamda uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega. Umuman olganda, 70540202 – Matematik injiniring magistratura ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga muvofiq hisoblanadi. Shu asosda ta'lim dasturi MUVOFIQ deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

